

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISH TARIXI XUSUSIDA

Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning o'rganilish tarixi, ularning nazariy asoslari va tilshunoslikda tutgan o'rni ko'rib chiqiladi. Frazeologiyaning rivojlanishi jarayonida olimlarning hissasi, frazeologik birliklarning mazmun-mohiyati va ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, frazeologiya, tilshunoslik, nazariy asoslar, leksikologiya, idiomalar.

Alohida zikr etish lozimki, frazeologizmlarni o'rganilish tarixiga nazar tashlanganda, u dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lganligi aniqlandi. Ma'lum badiiy asarlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda, barqaror so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish imkonsiz bo'lib qolgan, shu bois tillarda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar o'rganila boshlangan. Keyinchalik, leksikografik manbalarda frazemalar ham to'planib, ularning ma'nolari izohlangan. Keyinchalik iboralarning grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham tekshirila boshlangan.

Angliyalik taniqli olim Neandr *frazeologiya* terminini birinchi marta 1558-yilda qo'llaganligini hisobga olsak, bu davr yanada oldinga siljishi mumkin. Frazeologiya termini shu vaqtlardan ilm-fanga yangi atama, termin sifatida kirib kelgan bo'lishiga qaramay, mazkur birliklarni o'rganish ancha oldin boshlanganligini turkiyshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning asarlarida *caw* termini ostida tadqiq etilganligini ilmiy manbalarda kuzatishimiz mumkin.

Ilmiy manbalarda berilgan ishonchli ma'lumotlardan kelib chiqib, turli tillarda turli davrlarda mazkur birliklarga qiziqish uyg'ongan hamda ularni qo'llash boshlanganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, Angliyada paremiologik birliklarga bo'lgan qiziqish o'rta ingliz davrida (XIV–XVI asrlar), ya'ni *maqol tarzidagi hikmatli*

iboralarning oltin davri”da yanada ortdi¹. Ingliz jamiyatida bu davrga kelib kitob nashr etish jadallashdi. Uzoq yillar mobaynida jamlanib kelgan donishmandlik rasmiy ravishda pand-nasihat maqomini olib, xalq boshqaruvining didaktik quroliga aylandi.

XV-XVII asrga kelib Angliyada 12000 ga yaqin maqol va maqol tarzidagi iboralar mavjud bo‘lib, ular muntazam ravishda xalq tarafidan og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanar edi. XV asrga kelib Angliyada mavjud hikmatli iboralardan to‘plam yaratish an’anaga aylanib, ular hatto lotin tilidagi tarjimasi bilan berilar edi. O’sha davrning diqqatga sazovor asarlaridan biri Erasmusning “Matallar” nomli to‘plami hisoblangan. U o‘z tarkibiga lotin va yunon mualliflarining 4251 ta hikmatli iboralarini jamlab olgan bo‘lib, 1500 -1536 yillar mobaynida u bir necha bor chop etilgan. Undan keyin ham Angliyada hikmatli iboralardan iborat bo‘lgan yana bir qancha to‘plamlar paydo bo‘ldi. Ular jamlama xarakterga ega bo‘lib, undagi maqol va matallar Erasmusning tadqiqotlaridan olingan. Erasmusning tadqiqotlarini o‘z ichiga olgan qiziqarli to‘plamlardan biri Tomas Barletning “DictaSpientum” (1527) to‘plami hisoblanadi.

Yana bir olim Jon Xeyvudning “The dialogue of proverbs”(1546) to‘plamiga 1267 ta maqol va iboralar kirgan. Keyinchalik 1670-yilda Jon Rey “A collection of English proverbs”, 1855-yilda Bonning “Maqollar” kitobi, 1870-yilda Xatslittaning “Ingliz maqol va maqolsimon iboralari” nomli to‘plamlari nashr etildi². Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, ingliz tilida frazeologik, paremiologik birliklari juda uzoq tarixga ega, ular bugunda ham ko‘pchilik olimlar tomonidan turli xil ko‘rinishlarda tadqiq etilib kelinmoqda.

Turkiyshunos olim M.Kozimbek o‘z asarida “faza” so‘zini “jumla”, “gap” ma’nosida qo‘llagan. “Fazeologik birikma” deyilganda esa so‘zdan yirik til birliklarini tushungan³.

O‘zbek xalq paremiologik birliklarining o‘rganilish tarixida venger olimi Xerman Vamberining ham alohida o‘rni bor. X.Vamberining Germaniyada chop etilgan

¹ Mieder V. Twisted Wisdom, Modern Anti Proverbs. – Vermont, 1998. – 396 p.

² Taylor A. Problems in the study of proverbs. The Journal of American Folklore [Vol. 47, No. 183 \(Jan. - Mar., 1934\)](#), P. 1-21.

³ Казымбек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. Казань, 1846 – С. 120.

“Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya kitobidan xalq ijodi va yozma adabiyot namunalari joy olgan bo‘lib, 112 ta o‘zbek xalq maqoli ham asliyatda, ham nemischa tarjimasi bilan keltirilgan⁴.

N.P.Ostroumovning “Sartlarning maqol va topishmoqlari” nomli kitobida 600 dan ortiq xalq maqollari keltiriladi⁵. Mazkur manba ham paremlar tarixini o‘rganishda muhim asar hisoblanadi. Ushbu ilmiy manbada keltirilgan maqollarning asliyatini taqdim etilmagan. Qolaversa, undagi maqollar mahalliy xalqning o‘zidan emas, balki bu yerga kelib o‘rnashgan boshqa aholi qatlami orasidan ham yozib olingan.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, bu davrlarda so‘z birikmalari, jumladan, frazeologizmlar lug‘atshunoslik ixtiyorida bo‘lgan, ular hali ilmiy tadqiq etilmagan, faqat amaliy qo‘llanilgan. Leksikografik ishlar so‘z birikmalarini va frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishda samarali turtki bo‘lgan.

Ilmiy manbalarda frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchilaridan biri fransuz tilshunosi Charl Balli hisoblanadi deyiladi. Tadqiqotchi “Стилистика очерки”(1905) va “Француз стилистики”(1909)⁶ nomli ilmiy manbalarida frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritilgan edi⁷. Uning “Umumiy tilshunoslik” (1916) manbasida tilda shunday leksik birliklar borki, ular gapda bir bo‘lak vazifasida kelib, yaxlit ma’no bildiradi. Bunday birikmalar tayyor holda, an’anaga ko‘ra qo‘llanadi, degan edi⁸.

O‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab Y.D.Polivanov tomonidan o‘rganilgan deb qayd etiladi. U rus va ayrim sharq tillari frazeologiyasini o‘rganib, shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildiradi. U “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik

⁴ Сайфуллаева Р.Р. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, “Фан ва технология”, 2009 – В.34.

⁵ Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. III. – Ташкент: Типо-лит. торг. дома Ф. и Г. бр. Каменские, 1895. – 174 с.

⁶ Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1961. – С. 98.

⁷ Qarang: Кунин А.В. Теория фразеологии Шарля Балли // Иностранные языки в школе, 1966, № 3. – С. 17-23.; Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – Москва, Высшая школа, 1987. – С. 6-8.

⁸ Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики // Фердинанд де Соссюр Труды по языкознанию. Москва: Прогресс, 1977. – С. 157.

ma'nolarini, sintaksis esa so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan, ko'chma ma'noli so'z birikmalarining, individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda⁹ deb qayd etadi. Ushbu yangi sohani *frazeologiya* yoki *idiomatika* deb nomlagan.

Y.D.Polivanovdan so'ng B.A.Larin frazeologiyani alohida tilshunoslik bo'limi sifatida o'rganilishini taklif qilgan yana bir tilshunoslardandir. "Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda¹⁰ deb qayd etadi. Zero, bu sohaga oid muammolarni ba'zan leksikografiya, ba'zida esa stilistika yoki sintaksisda hal qilinishi hech kimga sir bo'lmagan.

Bugungi kunda biz frazeologik birliklarni tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida tadqiq etib, o'rganib kelmoqdamiz. Mazkur til birliklari alohida tadqiq etilishiga qadar lingvistikaning turli bo'limlarida tadqiq etilib kelingan. Ko'plab tadqiqotchilarning tadqiqotlari natijasida lingvistikaning alohida sohasi sifatida o'rganilmoqda va dunyo tilshunosligida juda ko'plab bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mieder V. Twisted Wisdom, Modern Anti Proverbs. – Vermont, 1998. – 396 p.
2. Taylor A. Problems in the study of proverbs. The Journal of American Folklore [Vol. 47, No. 183 \(Jan. - Mar., 1934\)](#), P. 1-21.
3. Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1961. – С. 98.
4. Казымбек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. Казань, 1846 – С. 120.
5. Кунин А.В. Теория фразеологии Шарля Балли // Иностранные языки в школе, 1966, № 3. – С. 17-23.; Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – Москва, Высшая школа, 1987. – С. 6-8.

⁹ Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI, – Ленинград, 1928. – С.60.

¹⁰ Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. ЛГУ. – Ленинград, 1956. – № 198. – С.201-202.

6. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. – Ленинград, 1956. – № 198. – С.201-202.
7. Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. III. – Ташкент: Типо-лит. торг. дома Ф. и Г. бр. Каменские, 1895. – 174 с.
8. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI, – Ленинград, 1928. – С.60.
9. Сайфуллаева Р.Р. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, “Фан ва технология”, 2009 – В.34.
10. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики // Фердинанд де Соссюр Труды по языкознанию. Москва: Прогресс, 1977. – С. 157.